

## Saxovatli Qashqadaryo zamini ulkan o'zgarishlar arafasida



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, amalga oshirilayotgan buniyodkorlik ishlari, yirik loyihalar bilan yaqindan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 13-14 dekabr kunlari Qashqadaryo viloyatida bo'ldi.

Tashrifning ikkinchi kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Qarshi shahrida Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi turmush sharoitini yanada yaxshilash masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda viloyat faollari, deputatlar, shaharlar va tumanlar hokimlari, sektorlar rahbarlari, keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.

Davlatimiz rahbari 2018 yilda qabul qilingan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida viloyatning 28 ta qishloq va 4 ta mahallasi obod qilinib, ularda yashayotgan 300 ming aholining turmush sharoiti yaxshilanganini ta'kidladi.

Jumladan, 17 mingta hovli-joy, 193 ta ko'p qavatli uy, 82 ta ijtimoiy soha obyekti, yuzlab kilometr yo'l va ko'chalar, suv va elektr tarmoqlarida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Bunga qariyb 300 milliard so'm sarflandi.

Viloyatda ichimlik suv ta'minotini yaxshilash borasida sezilarli ishlar qilingani, biroq bu kifoya emasligi qayd etildi. Bu ishlar ko'lmini oshirish maqsadida Koson, Muborak, Qamashi va G'uzor tumanlari ichimlik suvi ta'minoti tizimlarini rekonstruksiya qilish, Dehqonobod tumanidagi 38 aholi punktida yashayotgan 104 ming kishini markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash loyihalari amalga oshiriladi.

Aholining arzon uylarga talabini qondirish uchun joriy yilda qishloq joylarda 3 mingdan ziyod yoki o'tgan yilga nisbatan ikki barobar ko'p arzon namunali uy-joy, shunindek, Qarshi shahrida jami 630 xonardonli 14 ta ko'p qavatli uy qurildi. 2019 yilda 190 mingdan ziyod aholi yashaydigan 39 ta qishloq va 6 ta mahalla obodonlashtiriladi. Qishloq joylarda 1 ming 205 ta arzon namunaviy uy-joy, shaharlarda 14 ta ko'p qavatli uy barpo etiladi, aholining ichimlik suvi ta'minoti yaxshilanadi, dedi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimizning Buyuk Britaniya, Eron va Polshadagi elchixonalari Qashqadaryo viloyatiga biriktirilgan. Prezidentimizning tashrifi doirasida Qarshi shahrida o'tgan taqdimotlarda Buyuk Britaniyadagi elchimiz Alisher Shayxov 276 million dollarlik 5 ta loyiha, Polshadagi bosh diplomatimiz Bahrom Boboyev 163 million dollarlik 8 ta, Erondagagi elchimiz Bahodir Abdullayev 61 million dollarlik 9 ta loyihani amalga oshirishga

investitsiya kiritish bo'yicha takliflar berdi.

Davlatimiz rahbari bu loyihalar yetarli emasligini, elchilar xorijiy investitsiya jalg etishni kamida 2 barobar ko'paytirishi lozimligini ta'kidladi.

Elchilarimiz bularidan tashqari 2019 yilda har bir tumanga qo'shimcha kamida 10 million dollardan xorijiy investitsiya jalg qilishga ko'mak berishi kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda viloyatda ijtimoiy sohani rivojlantirish, ta'lim muassasalari faoliyatini yaxshilash, 2019 yilda mактабгача та'lim muassasalari va umumta'lim maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejaliри haqida ham so'z yuritildi.

Ishsizlikni kamaytirish masalasiga e'tibor qaratildi. Sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida umumiyy qiymati 15 trillion so'm bo'lgan 1 ming 200 dan ziyod loyiha bo'yicha takliflar ishlab chiqilgani, ular amalga oshishi bilan 29 mingta doimiy ish o'rni yaratilishi qayd etildi.

Hududda turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlар ishga solinadi. Bu borada Shahrисabzда yil davомida madаний-ко'ngilochар tadbirlar va anjumanlar o'tkazib borish orqali turistlarni keng jalb qilish uchun ko'hna Keshni Festivallar shahriga aylantirish taklifi berildi.

Ijtimoiy hayotni yaxshilash uchun, avvalo, iqtisodiyotni rivojlantirish kerak. Buning uchun iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish talab etiladi. Faqatxomashyo yetishtirish emas, balki uni tayyor mahsulot shaklida sotish tizimini yo'lga qo'yish zarur, dedi davlatimiz rahbari.

Yig'ilishda paxta klasterlari faoliyatini samarali tashkil qilish, meva-sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, har bir tuman iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda bog'dorchilik, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish yuzasidan topshiriqlar berildi. Joylardagi ijro organlari bu borada sustkashlikka, befarqlikka yo'l qo'yayotgani tanqid qilindi.

Qashqadaryo bag'rikeng, tanti va g'ururli el. Bu yerda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasи ham shunga munosib bo'yishi kerak. Biz, albatta, Qashqadaryo aholisi uchun munosib turmush sharoiti yaratamiz, xususan, xotin-qizlar, yoshlar muammolarini hal etishga e'tiborni kuchaytiramiz, ijtimoiy ta'minotga muhtoj qatlamni qo'llab-quvvatlaymiz, buning uchun rahbar xodimlarimizdagи mudroqlik kayfiyatini, korrupsiyani yo'qotamiz, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz videoaloqa orqali tumanlardagi aholi vakillari bilan muloqot qilib, ularning taklif va istaklarini bajarish bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

Shu kuni Shavkat Mirziyoyev Qarshi shahrida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov haykali poyiga gul qo'yib, uning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Islom Karimov Qashqadaryoga rahbarlik yillarida viloyat iqtisodiyotini ko'tarish, ijtimoiy muammolarni hal etish yo'lida ko?p ishlar qilgani yodga olindi.

Davlatimiz rahbari Qarshi shahrida bunyod etilayotgan "Vatanparvarlar" bog?ini borib ko?rdi.

Shavkat Mirziyoyev joriy yil yanvar oyida Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog?ida Qarshi shahridagi Islom Karimov ko?chasida joylashgan Bolalar bog?i nomini "Vatanparvarlar" deb o?zgartirish, bu yerda ana shu sharaflı nomga uyg?un ruhda rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish yuzasidan topshiriq bergen edi.

Bog?ni barpo etishdan maqsad yoshlarda tariximiz va madaniyatimizdan g?ururlanish tuyg?usini kuchaytirish, Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz nomini abadiylashtirish, armiyamiz qudrati va salohiyatiga ishonchni kuchaytirishdan iborat.

Qariyb 7 hektar hududdagi "Vatanparvarlar" bog?i ana shu maqsadlarga hamohang tarzda yangi qiyofa kasb etmoqda. Bu yerda 2018-2019 yillarda 29,3 milliard so?mlik rekonstruksiya ishlari amalga oshiriladi. Sun?iy ko?l, kirish darvozasi, amfiteatr, blendaj, o?q otish joyi va lukodrom qurilishi yakunlandi. Muzey qurilishi tugallanish arafasida, parashyutdan sakrash minorasi qurilishi, ko?kalamzorlashtirish ishlari davom etmoqda.

Bog? hududiga Mudofaa vazirligi tomonidan taqdim etilgan, turli yillarda xizmat qilgan 24 ta harbiy texnika maketi o?rnatalgan. Maxsus tayyorlangan blendajni ko?rgan kishi ko?z o?ngiga Ikkinchı jahon urushida mardonavor jang qilgan vatandoshlarimiz keladi.

Bog?da o?rnatalgan O'zbekiston xaritasining ulkan maketida har bir viloyatning buyuk siymolari, qadimiy obidalari, serviqor tog?lari, daryolari, bepoyon kengliklari aks ettirilgan.

Muxtasar aytganda, bu yerga tashrif buyuruvchilar O'zbekistonimiz hududlari haqida to?liq ma?lumotga ega bo?ladi.

Bog? yaqinida qurilgan 4 ta zamonaviy ko?p qavatli turar joy, xalqaro talablarga javob beradigan zamonaviy yopiq suzish havzasini hudud manzarasini yanada go?zallashtiradi.

Prezidentimiz bog?da yaratilgan sharoitlarni ko?zdan kechirdi, ta?lim muassasalaridagi "Jasorat" guruhlari a?zolari bilan suhbatlashdi.

Bunday maskanlar yoshlarga xalqimiz tarixi, ma?naviyati va madaniyati haqida yaqqol taassurot beradi. Endi bundan samarali foydalanish, ushbu maskanga yoshlarni ko?proq olib kelib, ochiq darslar o?tkazish kerak, dedi Shavkat Mirziyoyev.

O?zbekistonning ikkinchi jahon urushidagi g?alabaga qo?shgan hissasining ahamiyatini yoshlarga yetkazish, tinchlik-osoyishtaligimiz uchun katta xizmatlar qilgan vatandoshlarimiz haqida so?zlab berish zarurligi ta?kidlandi.

Davlatimiz rahbari "Vatanparvarlar" bog?i yonida qad rostlagan yangi suv sporti majmuasi bilan tanishdi. Ushbu zamonaviy inshootda 25x11 metrlik to?rt yo?lakdan iborat ikkita suzish havzasini mavjud. Tashqi ko?rinishi parvoz qilayotgan qushni eslatadigan inshoot havzasidagi suv maxsus filtrlar yordamida to?liq yangilab turiladi. Yuvinish, ovqatlanish, tibbiyot va fitnes xonalarida barcha qulayliklar yaratilgan. Bu yerdagи zamonaviy sharoitlar ota-onalarning, yoshlarning suv sportiga qiziqishini oshiradi.

Shavkat Mirziyoyev bu yerda shug?ullanayotgan yosh sportchilar bilan suhbatlashib, ularga kelgusi musobaqalarda omadlar tiladi.

Shu bilan Prezidentimizning Qashqadaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

[O?zA](#)